

**INTERNET JURNALISTIKASIDA DATA MATERIALLARNING YORITILISHI****Adilbek Latipov**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: mazkur maqolada Data jurnalistika tushunchasi va uning asosiy mohiyati haqida gap boradi. Bugungi kunda O‘zbekiston internet jurnalistikasida data materiallar muntazam berib boriladi. Maqolada ulardan ayrim namunalar keltirilib, tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada infografika va uning turlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: infografika, data, canva, anhor.uz, jadval, diagramma, internetn jurnalistikasi.

Bugun O‘zbekistonda jurnalistika o‘zining erkin qiyofasi, dadil qadamlari bilan namoyon bo‘lib bormoqda. Odamlarda ham bu kasb egalariga bo‘lgan ishonch tobora ortmoqda. Chunki, jurnalistlar xalq va davlat o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarishini, jamiyat ahamiyatidagi muammolarni ochiq olib chiqishini tushunishmoqda.

Ular faoliyati qonuniy jihatdan ham tartibga solinib borilmoqda. Huquq va majburiyatlari belgilanmoqda. Birgina, 2022-yilning 28-iyunida qabul qilingan “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezident qarorini misol qilish mumkin.[1]

Mazkur hujjat bilan OAVning qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, kadrlar salohiyati va raqobatbardoshligini yanada oshirish, ehtiyojmand va yosh jurnalistlarni uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirish belgilangan.



“Ommaviy axborot vositalari xodimlarining o‘z faoliyatini qonun doirasida erkin amalga oshirishiga to‘sqinlik qilish — bu demokratik islohotlarimizga qarshi harakat, mamlakatimizning obro‘sig‘a putur yetkazish sifatida baholanishi kerak. Sud va prokuratura organlari bizga mutlaqo yarashmaydigan bunday salbiy holatlar bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishi lozim”, — deya ta’kidlagandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.[2]

Umuman, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar samarasida sohada ham bir muncha yangiliklar kuzatilmoqda. Xususan, yangidan yangi yo‘nalishlar tobora kengaymoqda. Jurnalistlarning axborotni uzatishdagi o‘zgachaligi ham oshmoqda. Ular xalqaro maydondagi yangiliklardan bohabar bo‘lgan holda, mamlakatimizda ham axborotni uzatishda, yondashuvda yangiliklarni kiritishmoqda.

Bundan o‘n yillar oldin Data jurnalistika mamlakat uchun yangi bir soha edi, ammo yil sayin mazkur yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyatlaridan ommaviy axborot vositalarida keng foydalanila boshlandi. Data jurnalistika O‘zbekiston jurnalistika sohasida amaliy aksini topmoqda.

Data jurnalistika haqida gap ketganda, avvalo, uning qanday ma’no anglatishini ham tushuntirib o‘tish zarur. Data jurnalistika yoki ma’lumotlarga asoslangan jurnalistika (Data-driven journalism - DDJ) - bu yangilik yaratish yoki olib chiqish maqsadida yirik hajmdagi ma’lumotlar to‘plamini filtrlash va tahlil qilishga asoslangan jurnalistika.[3]

Ma’lumotlar jurnalistikasining asosini sonlar tashkil etadi va bu shunchaki raqamlarni taqdim etishni anglatmaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, raqamlar orqali ma’lumotlarni tayyorlashda ularni filtrlash zarur. Ya’ni material uchun olingan statistik ma’lumotlar jurnalist tomonidan tahlil qilinib, kerakli va muhimlari tanlab olinadi. Undan so‘ng, mazkur raqamlar turli vizual ko‘rinishlarga keltiriladi. Masalan, statistik raqamlar asosida diagrammalar tayyorlash mumkin. Ularni qanday qilib vizuallashtirish esa alohida mavzu.



Olingan ma’lumotlarni filtrlab, tahlil qilib, ularni infografika ko‘rinishiga keltirgach, maqola tayyorlanadi. Bunda mavzu va data materialda keltirilgan vizual ko‘rinish nima haqida ekanligi izohlab beriladi.

Axborot uzatishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud va jurnalistning kreativligi ham mazkur o‘zgachalikni yetkazib berishda zarur. Data jurnalistikani esa mana shunday keng fikrlilikning mahsuli deyish mumkin. Chunki unda ko‘p sonli ma’lumotlar turli vizual ko‘rinishlarda keltiriladi. Bu esa o‘quvchiga yetib borishi, “hazm bo‘lishi” uchun yaxshi usul sifatida keng qo‘llaniladi.

Data jurnalistika an’anaviy jurnalistika ko‘nikmalarini ma’lumotlarni tahlil qilish va vizualizatsiya qilish qobiliyatlari bilan birlashtirgan noyob ko‘nikmalar to‘plamini talab qiladi. Mutaxassislarning fikricha, Data jurnalistikada talab qilinadigan asosiy ko‘nikmalarga ma’lumotlarni tahlil qilish, vizualizatsiya, tanqidiy fikrlash hamda kommunikatsiya kiradi.[4]

“Ko‘zga ko‘rinadigan narsadan tashqarida sodir bo‘layotgan narsalarni suratga olish, filtrlash va vizualizatsiya qilish tobora qimmatli bo‘lib bormoqda. Siz ertalab ichadigan apelsin sharbati, siz tayyorlagan qahva, bugungi global iqtisodiyotda bu mahsulotlar, boshqalar va sizning o‘rtangizda ko‘rinmas aloqalar mavjud. Mazkur tarmoqning tili ma’lumotlardan iborat: ko‘pincha o‘z-o‘zidan ahamiyatsiz bo‘lgan kichik ma’lumotlar, agar siz ularga to‘g‘ri burchakdan qarasangiz, muhim ahamiyat kasb etadi”.[5]

Professor Jonatan Greyning “Data jurnalistika bo‘yicha qo‘llanma”sida ta’kidlanganidek, ma’lumotlar bilan ishlash keng va noma’lum hududga kirishga o‘xshaydi. Bir qarashda, asosiy ma’lumotlar ko‘z va miya uchun shunchaki hayratlanarli va mujmal ko‘rinadi. Bunday ma’lumotlar juda katta va noaniq. Ularni vizualizatsiya qilish, tushunarli ko‘rinishga keltirish uchun to‘g‘ri tartibga solish juda qiyin. Ma’lumotlar ko‘pincha chalkash, zerikarli ma’lumotni ko‘rib chiqish va undagi yashirin syujetlar va qiziqarli voqealarni “ko‘rish” uchun yetarlicha hayotiy energiyaga, qat’iyat va jasoratga ega tajribali jurnalistni talab qiladi.[5]



O‘zbekistondagi ko‘pgina nashrlar axborot uzatishda Data jurnalistikadan ko‘p foydalanishadi. Materiallarda infografikalar muntazam berib boriladi. Bu esa o‘quvchi diqqatini tortish bilan birga, tushunarsiz va juda ko‘p hajmdagi raqamlarni ixcham uzatish imkonini beradi. Masalan, Anhor.uz nashrini olib qaraylik. Mazkur sayt xabar, maqolalarni uzatishda infografikaning turli ko‘rinishlaridan foydalanadi.

2023-yilning 7-noyabrida saytda e‘lon qilingan “To‘siqlarni yengish: o‘smir qizlar mehnat bozorida o‘z o‘rnini qanday topishi mumkin” sarlavhali maqolada diagramma va kartalar keltirilgan. Unda jamiyatdagi teng huquqlilikni qabul qilishda katta o‘zgarishlar bo‘lishiga qaramasdan, ayollar uchun ishga joylashish va daromad topish jarayonida hali ham ko‘pgina qiyinchiliklar va to‘siqlar mavjudligi haqida gap boradi.[6]

Численность постоянного населения страны на 1 января 2023 года - 36 024,9 тыс. человек.

Трудоспособный возраст Моложе трудоспособного возраста Старше трудоспособного возраста




Chart: Дарья Пенцова • Get the data • Created with Datawrapper

Maqola boshidayoq, yuqoridagi diagramma keltirilgan. Unda mamlakat aholisi soni 2023-yilning 1-yanvar holatiga qanchani tashkil etishi va shundan 20,46 mlni mehnat yoshidagi, 11,43 mlni mehnatga layoqatli yoshdan kichigi hamda 4,12 mlni mehnat yoshidan oshgan fuqarolar ekanligi aks etgan.


Bu infografika bir qarashda oddiy ko‘ringani bilan, yuqoridagi statistik ma’lumotlarni o‘zida jamlagan hamda o‘quvchi uchun tushunarli ko‘rinishga keltirilgan.



Oddiy matn holidagi ma’lumotlardan ko‘ra, bu kabi usulda berilgan raqamlar o‘quvchi uchun yanada tushunarli bo‘ladi, tasavvurni oshiradi hamda raqamlarning yengil “hazm bo‘lishini” ta’minlaydi.

Vizualizatsiya murakkab ma’lumotlarni taqdim etishning samarali usuli bo‘lib, odamlarga ularni tez va oson tushunish imkonini beradi. Ma’lumotlarni vizual formatga keltirish orqali ularning yanada qulayroq va jozibali taqdimotini yaratish mumkin, bu esa keng auditoriya bilan muloqot qilishni osonlashtiradi.[4]

Anhor.uzda e’lon qilingan yuqoridagi materialga yana qaytamiz.



Mazkur xaritalarda O‘zbekiston hududlaridagi jami ayollar va erkaklar bandlik ulushi foizlarda keltirilgan. Maqolada xaritada har bir hududga bosish bilan bu haqdagi ma’lumotni bilish mumkin. Masalan, ikkinchi xaritada keltirilgan Qoraqalpog‘istondagi ayollar bandligi ulushi 41,1%ni tashkil etadi.

Ma’lumotlarni oddiy jadval yoki diagramma orqali beribgina qolmasdan, bugungi kunda turli ko‘rinishlarda yetkazish imkoniyatlari ko‘p. Yuqoridagi xarita esa ulardan biridir. Umuman, jurnalist yirik ma’lumotlarni, raqamlarni qanchalik interaktiv tarzda uzatishga urinsa, ulardan foydalanish imkoniyati ham kengayadi. O‘zbekiston xaritasi qaysi hududda ayollar va erkaklarning bandligi qanchani tashkil etishini so‘zlamogda va bunda uni ortiq izohlash, tushuntirish shart emas. Mazkur maqola mualliflari ham bu infografikalarni shu tariqa taqdim etgan.



Shu o'rinda infografika tushunchasiga ham to'xtalib o'tish zarur. “Wikipedia”da keltirilishicha, infografika lotincha *informatio* - taqdim etish, izohlash, bayon qilish; yunoncha *γραφικός* - yozma, *γράφω* - yozish ma'nolarini bildiradi. Umuman, infografika axborot va ma'lumotlarni uzatishning grafik usuli hisoblanadi. Uning maqsadi - murakkab ma'lumotlarni tushunarli vizual ko'rinishga keltirish. Infografikani qo'llash doirasi juda keng. Undan nafaqat jurnalistikada foydalanish mumkin, balki, reklama, geografiya, statistika va ta'lim kabi sohalarda ham foydalansa bo'ladi.[7]

Bir qarashda, jurnalistik materialda matn, fakt va statistik ma'lumotlar yetarli bo'lib ko'rinishi mumkin. Unda infografikalarga ehtiyoj sezilmasligi ham, tabiiy. Ammo, infografika yuqorida aytilgani kabi yirik hajmdagi materiallarni tushunarli uzatishning bir usuli. Infografikalar berilayotgan axborotning tushunarli, qisqa va aniq yetkazilishini ta'minlaydi. Butun bir tasvir mavzuning nima haqida ekanligini izohlab beradi. Masalan, oddiygina rezyume ham o'z ichiga infografika ko'rinishlarini qamrab olgan. Unda rezyume egasi haqida ma'lumotlar, raqamlar turli ko'rinishlarda, bo'limlarga ajratilgan (masalan, ta'lim, qiziqish va hokazolar) berilgan bo'lishi mumkin.

Mutaxassislar infografikaning quyidagi beshta asosiy turini ilgari suradilar:

- tahliliy yoki raqamli infografika;
- yangiliklar infografikasi;
- qurilish infografikasi;
- reklama infografikasi;
- taqqoslash infografikasi.

Xususan, analitik infografikada statistik ma'lumotlarni taqdim etishda foydalaniladi, juda ko'p raqamlar, diagrammalar va grafiklar mavjud bo'ladi. Yangiliklar infografikasi so'nggi voqealar haqida hikoya qiladi, u o'zida xronologiya va atrofda sodir bo'layotgan voqealarning muhim bosqichlarini aks ettiradi. Qurilish infografikasi obyektning tuzilishini yoki hodisaning mexanizmini, ba'zan tarixiy voqeaning xronologiyasini va sabablarini ko'rsatadi.[8]



Reklama infografikasi nomi bilan aytib turibdi-ki, u qandaydir tovar yoki xizmatni reklama qilishni anglatadi. Masalan, bunda mahsulot va uni xarid qilishning afzalliklari keltirilgan rasm bo'lishi mumkin. Shuningdek, taqqoslovchi infografika turli obyektlarning xususiyatlarini solishtiradi.

Bundan tashqari, tahliliy va yangiliklar infografikasi qayta ishlab chiqilgan infografika bilan birga, infografikalarning manba turiga kiritilgan.[9]

Ko'rsatish usuliga ko'ra esa, infografika turlariga statistik, dinamik hamda interaktiv infografikalar oid. Infografikalar jadval, grafika, diagramma, piktogramma kabi turlarga ajraladi. Ulardan eng keng tarqalgani va eng sodda tuzilishga ega bo'lgani - bu jadval. Xususan, jadvallar orqali statistik ma'lumotlar, kerakli raqamlarni tegishli tartibda alohida-alohida kataklarga joylashtirish mumkin. Biroq, bu usul bugungi kunda unchalik ham qiziqarli emas. Bu orqali o'quvchi yoki tomoshabinni jalb qilish ham imkonsiz. Boisi infografikalarning turli ko'rinishlari shakllanmoqda. Bitta rasm orqali axborotni turli yo'llar bilan uzatish amaliyoti yuzaga chiqmoqda. Albatta, bu o'z navbatida jurnalist mahorati va ko'nikmalariga bog'liq.

Mavjud ma'lumotlarni, tahrirlash, tahlil qilishdan keyin ularni turli infografik ko'rinishlarga keltirish kerak. Bunda esa jurnalist turli onlayn platformalarga murojaat qilishi mumkin bo'ladi. Albatta, ulardan ayrimlari bepul, yana ayrimlari pullik bo'lishi ham mumkin. Infografika yaratishda foydalanish mumkin bo'lgan platformalarga “Canva”, “Easel.ly”, “Piktochart”, “Lucidchart” hamda “Visme” kabilarni keltirish mumkin. Ulardan eng ommabop platformalardan biri - bu “Canva”. Mazkur bepul platforma o'zining shablonlari va turli rasmlar namunalariga ega. Infografikaga qo'shimcha ravishda taqdimotlar, rezyumelar, plakatlar yaratish mumkin.

Umuman, Data jurnalistika orqali jurnalistik materiallarning o'quvchi yoki tomoshabin xotirasida chuqur muhrlanishiga erishish mumkin. Birmuncha murakkab bo'lishiga qaramay, ma'lumotlar jurnalistikasi axborot uzatishning zamonaviy va maqbul yechimidir. Muhimi, mazkur soha jurnalistdan katta kuch, qiziqish, sabr va qunt talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.06.2022. <https://lex.uz/docs/-6083381>
2. Shavkat Mirziyoyevning matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi, 27.06.2022. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/27/congratulation/>
3. Data Journalism, https://en.wikipedia.org/wiki/Data_journalism
4. Anete Ezera “From data to story: Data journalism definition and examples”, <https://infogram.com/blog/data-journalism-definition-examples/>
5. Джонатан Грей, “Пособие по журналистике данных”, 2013.
6. Darya Penzova, “To'siqlarni yengish: o'smir qizlar mehnat bozorida o'z o'rnini qanday topishi mumkin”, 07.11.2023 <https://anhor.uz/vzglyad-iznutri/work-for-teens/>
7. Инфографика.
<https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%BD%D1%84%D0%BE%D0%B3%D1%80%D0%B0%D1%84%D0%B8%D0%BA%D0%B0>
8. Daniil Gapeshin, “Что такое инфографика? 5 сервисов для её создания”, 29.04.2022.
https://skillbox.ru/media/design/что_такое_инфографика_5_besplatnykh_servisov_dlya_eye_sozdaniya/
9. Dilorom Ashurova, “Ta'lim jarayonida infografikadan foydalanish vositalari va uning samaradorligi”, “O'zbekistonda xorijiy tillar” elektron jurnali, №1(20)2018.
<https://journal.fledu.uz/uz/talim-zharayonida-infografikadan-fojdalanish-vositalari-va-uning-samaradorligi/>